

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligi direktori o‘rinbosari



Z. Ziyayev

2024-y. “28” iyul

INTERAKTIV XIZMATINING REGLAMENTI

KORXONA VA TASHKILOTLAR KTUT KODI (KORXONA VA TASHKILOTNING UMUMDAVLAT TASNIFI KODINI ANIQLASH

1. Xizmatning ta’rifi (pasport)

1.1. Xizmat nomi

Korxonalar va tashkilotlar KTUT kodini aniqlash.

1.2. Xizmat natijasi

So‘ralayotgan yuridik shaxsning STIRini kiritib, Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYADR) ma‘lumot bazasidan KTUT kodini aniqlash.

1.3. Xizmat ko‘rsatish organlari va blankalarni olish joylari

Statistika agentligining rasmiy sayti www.stat.uz.

1.4. Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko‘rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 539-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2014-yil 30-maydagi “Yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiya qilishni avtomatlashtirilgan axborot tizimi “Reg-System”da ishlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 3-mb-son qarori (ro‘yxat raqami 2594, 2014-yil 12-iyun).

1.4. Xizmat qabul qiluvchilari

Jismoniy va yuridik shaxslar.

1.5. So‘rov berish muddatlari

So‘rov berish muddati o‘rnatilmagan.

1.6. Bajarilish muddati

Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz orqali real vaqt rejimida.

1.7. Tasdiq berilish muddati

O'rnatilmagan.

2. Xizmat qabul qiluvchilarini habardor qilish

2.1. Axborot tarkibi va hajmi

KTYADRdagi korxonalar va tashkilotlar KTUT kodi.

2.2. Katta miqyosda xabardor qilish

O'rnatilmagan.

2.3. So'rov bo'yicha xabardor qilish

Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz orqali real vaqt rejimida.

2.4. Xizmat ko'rsatish joyi haqida xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani, 100192, Mustaqillik shoh ko'chasi 63.

2.5. Foydalaniladigan hujjatlar blanklari (shakllar)

O'rnatilmagan

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz orqali real vaqt rejimida.

3.2. Kutish shartlari

O'rnatilmagan.

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Shart bo'lgan hujjatlar

Talab etilmaydi.

4.2. Xizmat haqi

Xizmat bepul amalga oshiriladi.

4.3. Interaktiv xizmatining ko'rsatish bosqichlari

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi ochiq ma'lumotlarni olish uchun www.stat.uz saytiga kirish lozim. O'ng tarafdagi "Interaktiv xizmatlar" menyusidan "Korxonalar va tashkilotlar KTUT kodini aniqlash" bo'limini tanlash kerak. So'ngra so'ralayotgan yuridik shaxsning STIRini kiritish lozim.

4.4. Interaktiv xizmatini ko'rsatishda idoraviy ichki tartiblar

O'rnatilmagan.

4.5. Rad etish asosi

O'rnatilmagan.

5. Sifat ta'minoti

5.1. Sifat parametrlari

Xizmat ko'rsatish sifati taqdim etilayotgan xizmatlar uchun o'rnatilgan tartibga muvofiq.

5.2. Sifatsiz xizmatga shikoyat

Shikoyat, o'rnatilgan tartibda statistika organlariga yozma murojaat orqali yoki Statistika qo'mitasining rasmiy saytidagi qayta aloqa shakli orqali amalga oshiriladi.

5.3. Korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot olish bo'yicha interaktiv xizmatini ko'rsatish sxemasi

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	Statistika agentligining rasmiy www.stat.uz saytiga kiriladi.	O'z xohishiga ko'ra
2-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	“Interaktiv xizmatlar” menyusidan “Korxonalar va tashkilot KTUT kodini aniqlash” bo'limi tanlanadi.	O'z xohishiga ko'ra
3-bosqich	Murojaatchi (yuridik yoki jismoniy shaxs)	So'ralayotgan yuridik shaxsning STIRi kiritiladi.	O'z xohishiga ko'ra
4-bosqich	Statistika agentligi	KTYADRdagi korxonalar va tashkilotlar KTUT kodi to'g'risidagi ma'lumot taqdim etiladi.	Real vaqt rejimida